

O‘ZBEK TILIDA MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Toshkent gumanitar fanlar universiteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

Rahimova Sevara

Annotatsiya: *Bu maqolada maqollarning lingvokulturologik jihatdan tahlili berilgan. Til va madaniyatning bir – biriga uzviy tarzda bog‘liqliklarini ko‘rishimiz mumkin. Maqollar orqali xalqimiz madaniyati, urf – odatlari mujassam bo‘ladi.*

Kalit so‘zi: *Maqol, barqaror birikma, so‘z, lingvokulturologiya, madaniyat, til.*

Nutqda fikr ifodalash uchun barqaror birikmaga ham ehtiyoj mavjud. U ikki mustaqil so‘zdan iborat bo‘lib, nutqqacha tayyor holga kelgan.

O‘zbek tilida barqaror birikma sifatida, odatda, maqol, matal, ibora, tasviriy ifoda e’tirof etiladi. Tilshunoslikning barqaror birikmani o‘rganuvchi bo‘limi paremiologiya (lotincha parema – “barqaror”, logos – ta’limot), uning lug‘atini tuzish bilan mashg‘ul bo‘luvchi soha poremiografiya (lotincha parema — “barqaror”, grapho -yozmoq) deyiladi.

Maqol — xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli va obrasiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma‘noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba‘zan ko‘p ma‘nolilik, majoziy ma‘nolarga boylik kabi xususiyatlar xarakterli.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida maqol so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: Maqol- maqola, kichik asar, so‘z, nutq, hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli, tugal ma‘noli va hikmatli ibora, gap. Maqollar xalq hayotini, urf- odatlar aks etadi. Maqollarni qo‘llashdan dastlabki maqsad ta’lim -tarbiya bo‘lib, nafaqat yosh avlodni balki katta yoshdagilarni ham tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Maqollar orqali biz o‘zimizni va insonlarga ta’lim – tarbiya berishimiz mumkin. Chunki maqollar xalqimizning uzoq o‘tmishda olgan tajribalari va kuzatishlari natijasida hosil o‘ladigan birlikdir.

Do‘st achitib gapirar

Dushman kuldirib gapirar

Maqolda inson ulg‘ayib borar ekan, uning orzulari-istaklari va tahvishlari ham kattalashib, hayotda turli katta va kichik xatolar qilib qo‘yishiga sabab bo‘ladi. Har bir inson hayotida katta bo‘lsin yoki kichkina xatolarga yo‘l qo‘ygan. Inson uchun bu tabiiy hol. Qilayotgan ishimiz xato ekanligini, noto‘g‘ri ishga qo‘l urayotganimizni esa o‘zimizdan ko‘ra atrofdagilarimiz bizdan ko‘proq bilishadi. Bizga do‘st bo‘lganlar esa bizni bu yo‘ldan qaytarishga urinishadi. Tabiiyki bu bizga yoqmaydi. Chunki inson xarakterida shunday narsa borki, u tanqid emas maqtoovni yoqtiradi. Biz o‘zligimizni va

maqsadimizni aniq qilib olsak va atrofdagi do‘stlarimiz fikrlariga ham quloq solsak, albatta jiddiy xatolarga yo‘l qo‘ymaymiz. Dushman esa bizni har doim xato qilishimizni kutadigan, xato yo‘ldan borishimizni bilsa ham aytmaydigan va har doim yolg‘on, xushamadgo‘y so‘zlarni aytib turadigan eng xavfli dushmandir.

Lingvokulturalogiya ilmiy fan sifatida til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta‘sirini o‘rganishni asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Shunday ekan bu kabi maqollarda madaniyatimiz bilan bog‘liq jihatlarini ko‘p uchratamiz. Til va madaniyat bir – biri bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi.

O‘zbek xalqida rang bilan bog‘liq maqollarda ham chuqur falsafiy ma‘no mavjud. Har bir rang har bir millat madaniyatining o‘ziga xos lingvokulturologik xususiyatga ega. Bu esa o‘sha xalqning turmush tarzidan, madaniyatidan, yashash tarzidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Biz bilamizki, bizning o‘zbek xalqimizda qora rang deganda yaxshi ma‘no ifoda etmasligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

Qozonga yondashsang, qorasi yuqar.

Yomonga yondashsang, yarasi yuqar

Bu maqolda qora rang bilan bog‘liq o‘rinlarda kuchli falsafiy ma‘no ifodalangan. Hammamizga ma‘lumki, qozon qora bo‘lishi uning yoniga borishimiz bilan qorasi yuqishi va yomon insonlar bilan ham yo‘ldosh bo‘lsang har doim yuzimiz qora bo‘ladi degan ma‘no bor. Maqollar ko‘chma ma‘noda ifodalanadi. Agar ko‘chma ma‘noda ifodalanmasa biz kutgan ma‘no va xulosa kelib chiqmaydi.

Shunday ekan har doim yaxshi insonlar bilan do‘st bo‘lishga, vatanga xizmat qilish uchun yashashimiz kerak.

Son bilan bog‘liq maqollarda ham xalqimiz urf- odatlari, bir- birlariga hamdardlik, maslahat ma‘nolari mujassam bo‘ladi. Masalan: Yetti o‘lchab bir kes. Hayotimiz davomida har qanday qiladigan ishlarimizni o‘ylab, muhokama qilib keyin bajarish yoki qilishimiz kerak.

O‘zbek xalq maqollari tilimizda qoliplashgan holda namoyon bo‘ladi. Chunki maqollardagi so‘zlarni boshqasi bilan almashtirish, biror so‘zni qo‘shish mumkin emas. Shuning uchun ham ular tilimizga tayyor holda kirib keladigan yaxlit butunlik hisoblanadi. Uning tarkibidagi so‘zlarni o‘rnini almashtirish maqolning mazmuniga putur yetkazadi. Ular qanday shaklda bo‘lsa shunday shaklda berilishi kerak.

Maqollar madaniy va ma‘naviy boyligimiz bo‘lib, u avloddan avlodga o‘tib kelayotgan bebaho merosimizdir.

Til va madaniyatning o‘zaro yaqinligi va aloqadorligi shular orqali namoyon bo‘ladi. Maqollarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish bugungi kun tilshunosligi uchun muhimdir.

Maqollar turli mavzularda bo‘lib ularning barchasida xalqimizning madaniyati, urf- odatlari mujassam bo‘ladi:

- 1) vatan va vatanparvarlik haqida;
- 2) mehnat va mehnatsevarlik haqida;
- 3) kollektivizm;
- 4) do‘stlik va kelishmovchilik haqida;
- 5) fan va san‘at haqida;
- 6) donolik va johillik haqida;
- 7) mardlik va insoniylik haqida;
- 8) jasorat va qo‘rqoqlik haqida;

9) hushyorlik va ehtiyotkorlik haqida;

10) oila va yaqinlar haqida;

11) sevgi va sadoqat haqida;

12) kattalarni e‘zoz qilish haqida;

O‘zbek xalqida shunday odat borki, ya‘ni kattani hurmat qilish va kichkinaga izzat ko‘rsatish eng yaxshi fazilatlaridan biri hisoblanadi.

Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l. Bu maqoldan shuni anglashimiz mumkinki, o‘zimizdan katta insonlarga doim hurmat ko‘rsatishga harakat qilamiz. Kichiklarga yo‘l – yo‘riq ko‘rsatish va ularga yordam berish, izzat qilish kabi ma‘nolar mujassamdir.

Maqollarni biz 2 guruhga bo‘lishimiz mumkin.

a) o‘z ma‘nosida qo‘llanuvchi;

b) faqat ko‘chma ma‘noda qo‘llaniluvchi.

Masalan “Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda” bumaqol haqiqatdan ham yerni kuzda shudgor qilib qo‘yamiz. Shuning uchun bu maqol o‘z ma‘nosida qo‘llangan.

Maqollarda antiteza hodisasi ko‘p uchraydi :

"Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l", "O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtida gado bo‘l", "Do‘st achitib gapirar, dushman kuldirib gapirar" va boshqalar.

Son va rang bilan bog‘liq maqollarda ham xalqimiz urf- odatlari, bir- birlariga hamdardlik, maslahat ma‘nolari mujassam bo‘ladi. Bu kabi maqollarda boshqa maqollarga qaraganda til va madaniyat o‘rtasida aloqalar yaqqol sezilib turadi. Masalan: Yetti o‘lchab bir kes. Hayotimiz davomida har qanday qiladigan ishlarimizni o‘ylab, muhokama qilib keyin bajarish yoki qilishimiz kerak. So‘z boyligi yaxshi bo‘lgan kishilar maqollardan o‘z o‘rnida foydalanib, tinglovchini o‘zlariga jalb qila oladilar.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek maqollari xalqimizning madaniy merosidir. Ularda o‘zbek xalqining barcha o‘y-fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarsi, fe‘l-atvori va e‘tiqodi aks etadi. Har bir millat o‘ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu uning maqollariga ham ta‘sir etmay qolmaydi. Aynan ana shu tasvirlar maqoldagi milliy bo‘yoqdorlikni ta‘minlaydi. Maqollarning lingvokulturologik jihatlarini chuqur o‘rganish lozim

3. Ne‘matov H, Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. 4. 4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –T. 2006.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ne‘matov H, Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.

2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –T. 2006.

3. Sulaymonov M. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. -Namangan.; 2008.

4. O‘zbek xalq maqollari. I- tom. - Toshkent.; Fan. 1987-yil.

5. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. -Toshkent.; 2000-yil. 156-bet.

6. Baxtiyor Mengliyev Hozirgi o‘zbek tili (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan Toshkent «Excellent Polygraphy» 2020